

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**B.Sh.Shermuhammadov, B.Q.Qurbanova**

Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmini rivojlantirish.....7

**I.Tuychiyeva, Z.Axunova**

Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompitentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....10

**D.R.Yuldasheva**

Bo'lajak vokal o'qituvchilari kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan omillar.....14

**A.R.Saydullayeva, B.Mahmudova**

Yuqori sinf o'quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda gender yondashuvning ahamiyati .....20

**I.I.Soliyev**

Oliy ta'lif muassasalari boshqaruvida institutsional mustaqillikni shakllantirish bosqichlari .....26

**Sh.D.Xonbabayev**

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik asoslari .....31

**M.S.Xoshimov**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.....36

**L.Z.Xolmurodov**

Boshlang'ich sinf o'quvchilari koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning modulli texnologiyasi.....41

**A.Sh.Bazarbayeva**

Chet tillarini o'qitishda mashqlar tipologiyasi va tizimiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar.....45

**N.Sh.Abdiyeva**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi .....54

**F.A.Boltayeva**

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida kuest texnologiyasi orqali tadqiqiy bilish va refleksiv faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari.....59

**M.E.Maziyayeva**

Maktabgacha ta'lifmda neyropedagogika imkoniyatlaridan foydalanish .....63

**D.D.Boymirzayeva**

Oliy ta'lif muassasalarida tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy modellari .....67

**M.O.Ismailova**

Kitobxonlik madaniyati - inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur .....71

**G.O.Shaxbazova**

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirishning jismoniy-tarbiyaviy mazmuni .....75

**M.F.Bekchonova**

Fanlararo hamkorlikda biologiya yo'nalishi talabalarining biologik xavfsizlikni ta'minlashga doir bilimlarini rivojlantirishning nazariy jihatları .....79

**X.A.Ibragimov**

Ta'lif muassasalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining samarali shakllari .....83

**A.T.Nazarov**

Sport turizmi tavsifi va undan bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda foydalanish .....88

**D.M.Xusanov**

O'quvchilarni harbiy ideal haqidagi bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruriyati .....92

**Y.Y.Turakulov**

Ta'lifda raqamli texnologiyalarning pedagogik faoliyatga ta'siri.....96

**Sh.G'.Xasanov**

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik hamkorlikni loyihalashtirishning nazariy jihatları.....102



УО'К: 373.211.24

**МАКТАБГАЧА ТА'LIM TASHKILOTLARIDA KVEST TEKNOLOGIYASI ORQALI  
TADQIQIY BILISH VA REFLEKSIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI**

**ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ И  
РЕФЛЕКСИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С ПОМОЩЬЮ КВЕСТОВОЙ ТЕХНОЛОГИИ В  
ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ**

**OPPORTUNITIES FOR RESEARCH KNOWLEDGE AND DEVELOPMENT OF  
REFLEXIVE ACTIVITIES THROUGH QUEST TECHNOLOGY IN PRESCHOOL EDUCATIONAL  
ORGANIZATIONS**

Boltayeva Feruza A'zam qizi   
Farg'onan davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Maqolada mактабгача та'lим ташкilotларida асосија hujjat hisoblangan "Ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qо'yilgan Davlat talablari" асосида ta'lim-tarbiyaviy faoliyatлarni tashkil etish va mazkur jarayonlarda bolalarning tadqiqiy bilish va refleksiv faoliyatini rivojlanirish zarurati, mazkur ko'nikmalarni shakllantirish kvest texnologiyasining dolzarb ahamiyati borasida so'z boradi. Maqolada kichik yoshdagи bolalarda tadqiqiy bilish va refleksiv faoliyatni shakllantirishda kvest texnologiyasi samarali metodika sifatida e'tirof etiladi. Bunda texnologiyaning kelib chiqish ta'rixi, pedagog-olimlar tomonidan keltirilgan nazariyalar va uning amaliyotda qo'llanilish doirasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, texnologiyani maktabgacha yoshdagи bolalar faoliyatiga tadbiq etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Kvest texnologiyasi mohiyatini aks etuvchi quyidagi o'yin usullari misol sifatida keltiriladi: "Labirint", "Belgililar orqali manzilga yet", "Sandiqchadagi sirmi aniqla", "Butun shaklni top". Bu o'yinlar misol sifatida keltirilib maqola bilan tanishgan pedagoglar o'z faoliyatlarida ularga qo'shimchalar kiritish orqali boyitishlari mumkin. Shuningdek, maqolada refleksiv ta'lim-tarbiyani tashkil etishning асосија tamoyillari keltirilgan bo'lib, ular tadqiqiy bilishga yo'naltirilganlik tamoyili, ekzistensiallik tamoyili, kreativlik tamoyili va dialogik tamoyillar hisoblanadi. Xulosa o'mida bolalarda tadqiqiy bilish faoliyatini tashkil etish va har bir bolaning tadqiqiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash ularni kelajakda har tomonlama yetuk shaxs sifatida voyaga yetishlarini ta'minlaydi.*

**Аннотация**

*В статье речь пойдет об организации учебно-воспитательной деятельности в дошкольных образовательных организациях на основе "государственных требований к развитию детей раннего и дошкольного возраста", являющихся основным документом, и о необходимости развития исследовательской познавательной и рефлексивной деятельности детей в данных процессах, о актуальности технологии квестов по формированию навыков. В статье квестовая технология признается эффективной методикой в формировании исследовательской познавательной и рефлексивной деятельности у детей раннего возраста. Он содержит информацию об истории происхождения технологии, теориях, представленных учеными-педагогами, и масштабах ее применения на практике. Также будут рассмотрены возможности внедрения технологии в деятельность дошкольников. В качестве примера приведены следующие игровые приемы, отражающие суть технологии квестов: "Лабиринт", "добраться до места назначения через персонажей", "разгадать тайну в сундуке", "найти целую фигуру". Эти игры приведены в качестве примера педагоги, ознакомившиеся со статьей, могут обогатить ее в своей деятельности, добавив к ним дополнения. Также в статье представлены основные принципы организации рефлексивного обучения-воспитания, которые являются принципом ориентированности на исследовательское познание, принципом Экзистенциализма, принципом креативности и диалогическими принципами. Организация исследовательской познавательной деятельности у детей вместо умозаключений и поддержка исследовательской деятельности каждого ребенка обеспечат им в будущем всесторонне зрелых личностей.*

**Abstract**

*The article will talk about the organization of educational activities on the basis of "state requirements for the development of children of Primary and preschool age", which is considered the main document in preschool educational organizations, and the need to develop research and reflexive activities of children in these processes, the formation of these skills, the urgent importance of Quest technology. The article recognizes quest technology as an effective methodology in the formation of research cognition and reflexive activity in young children. This includes information on the interpretation of the origin of technology, the theories presented by pedagogical scientists and the scope of its application in practice. The possibilities of introducing technology into the activities of preschool children are also*

considered. The following game methods, reflecting the essence of Quest technology, are cited as examples: "Labyrinth", "meet the destination through the characters", "identify the mystery in the chest", "find the whole form". Educators who have been introduced to the article by citing these games as examples can enrich them by making additions to their activities. The article also presents the basic principles of the organization of reflexive education, which are the principle of orientation to research knowledge, the principle of existentialism, the principle of creativity and dialogical principles. In place of the conclusion, the organization of research cognitive activity in children and the support of the research activity of each child will ensure that they will grow up in adulthood in the future as a comprehensively mature person.

**Kalit so'zlar:** Ta'lif-tarbiyaviy faoliyat, kvest o'yinlari, labirint o'yini, birgalikdagi faoliyat, refleksiv faoliyat, tadqiqiy bilish, ekzistensiallik, shaxsga yo'naltirilgan ta'lif.

**Ключевые слова:** Учебно-воспитательная деятельность, квестовые игры, лабиринтная игра, совместная деятельность, рефлексивная деятельность, исследовательское познание, экзистенциальность, личностно-ориентированное обучение.

**Key words:** Educational activities, Quest games, maze game, joint activities, reflexive activities, research knowledge, existentialism, personality-oriented learning.

## KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun samarali ta'lif va tarbiya jarayonini tashkil etish ja'miyatimiz tomonidan talab qilinayotgan muhim masalalardan biri sanaladi. Erta yoshdagi ta'lif tarbiyaning ta'siri insonning butun hayoti davomida davom etishini hisobga oladigan bo'lsak, mazkur masalaning nechog'lik muhim ekanligini yanada chuqurroq anglash mumkin. Bu davrda miya maksimal tezlikda rivojlanadi. Yosh bola boshdan kechirayotgan sharoitlar uning uzoq muddatli kognitiv, ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Ta'lifdagagi tengsizliklar dastlabki yillarda boshlanadi va hayot davomida saqlanib qoladi. YUNESKO Bosh direktori Odri Azule ta'kidlaganidek: "Erta yoshdagi ta'limga sarmoya kiritish — barcha bolalarga hayotniadolatli boshlash va ta'lifning mazkur boshqichida tengsizliklarga qarshi kurashish uchun mamlakat amalga oshira oladigan eng samarali investitsiyasidir". "Bolalarni boshlang'ich ta'limga tayorlash, ularning hayot davomidagi ta'lif jarayonida ravnaq topishiga zamin yaratish juda muhim".[1]

Darhaqiqat, erta yoshdagi ta'lif va tarbiya bolaning butun umri davomida unga hamrohlik qiladi va kelajakda o'zlashtiriluvchi har bir axborotning yo'nalishini tanlashda tayanch bilimlar sifatida xizmat qiladi. Ma'lumki erta yosh bosqichidagi bolalar ta'limi va tarbiysi bir qadar murakkab jarayon hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalarda tajribasizlik va intellektual imkoniyatlarning yetishmasligi tufayli ota-onalar va pedagoglar o'zaro muloqotda turli qiyichiliklarga duch keladilar. Mazkur tadqiqot ishida bolalar bilan samarali ta'lif va tarbiya jarayonini tashkil qilish yuzasidan fikr, mulohaza va amaliy vazifalar tahlili amalga oshiriladi. Buning uchun ta'lilda qo'llanilish doirasiga ko'ra samarali hisoblangan zamonaviy texnologiyalarni maktabgacha ta'lilda tadbiq etilish imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz.

Kvest texnologiyasi samarali ta'lif-tarbiyaviy faoliyatni tashkil qilish imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtirgan ta'lif metodikalaridan biri hisoblanadi. Kvest o'yinlarining mazmuni jumboqlarni yechishga qaratilganligi bois bolalarda tadqiqiy bilish jarayonlarini rivojlantirishda samarali natijalarni bera olishi mumkin.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

"Kvest" va "Veb-kvest" texnologiyasining imkoniyatlari, ushbu texnologiyani ta'lif jarayonida qo'llash algoritmi, bosqichlari, usulariga oid tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borgan hamda ular tomonidan turlicha ta'riflar keltirilgan, xususan E.F.Mostkovaning fikriga ko'ra, "Kvest" – bu inglizcha qidirish, jumboqli o'yin degan ma'noni anglatib, virtual yoki real maydonda joylashtirilgan har xil turdag'i onlayn va offlayn o'yinlardir. Bu o'yinning o'ziga xos shakli ishtirokchilarga berilgan vazifalar yechimini topishni talab qiladigan intellektual faoliyatdir.[2]

XIX asrning 60-yillarida rus fiziologi I.M.Schenov (1829-1905) inson psixikasining ontogenesini reflektor tabiatiga haqidagi ta'lifotini yaratdi. U o'zining 1863-yili yozgan "Bosh miya reflekslari" nomli asarida odam psixik hayotiga, bolalar psixik hayotiga realistik nuqtai nazaridan yondoshishni asoslab berdi va psixik taraqqiyotining asosini reflekslar tashkil qiladi degan ta'lifotni yaratish bilan fanga zid bo'lgan qarashlarga zarba berdi.[3]

Kvest texnologiyasining ta'lif jarayoniga kirib kelishi va samaralilik darajalari ko'rinish kelayotgan bo'lsada, ammo uning maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatiga tadbiq etilishi bilan aloqador tadqiqot ishlari yetarli darajada mavjud emas. Ammo amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatmoqdaki kichik yoshdagi bolalar bilan mazkur usuldag'i faoliyatlarini tashkil qilish

## PEDAGOGIKA

imkoniyatlari mavjud va bunday faoliyatlarda ular qiziqish bilan ishtirok etadilar. Xususan, bolalar faoliyatining har bir turlarida o'yn elementlarini integratsiyalash mumkin. rivojlanish markazlarida yoki guruhiy faoliyatlar tarkibini jumboqli topshiriqlar asosidagi o'yn vositalari bilan boyitish mumkin. Turli krosvordlar, labirint, "aqli yo'lak", "belgilar ortiga yashiringan buyumni topish", "aralash jihozlar orasidan keraklisini aniqlash" mazmunidagi faoliyatlarni kuest tipiga kiritish mumkin. Bolalar faoliyatini kuest usulida loyihalashda bolalarning yosh xususiyatlari e'tiborga olinadi va topshiriqlar mazmunini yuqori yosh bosqichlarida asta-sekin murakkablashtiriladi.

**NATIJA VA MUHOKAMALAR**

Kichik yoshdagi bolalarda hayotiy bilim va tajribalarning yetishmasligi tufayli ular mazkur ko'nikmalarni egallashga doimiy harakat qildilar. Ularning har bir xatti-harakatida qaysidir faoliyatni amalga oshirish maqsadi yotadi. Shuning uchun bolalar faoliyatini samarali tashkil qilish muhim mas'uliyatlari vazifa sanaladi. Bolaning egallayotgan har qanday harakat va faoliyati unda refleksiv shakllanadi. Reflekslarning samaralilik xususiyati bola o'zlashtirayotgan axborotlar sifatiga bog'liq. Agarda tarbiyachi bolada ijobjiy fazilatlarni va teran aqlni shakllantirishni o'z oldiga vazifa sifatida qo'ysa, avvalo, bolaning rivojlanishini refleksiv jarayon ekanligini anglashi va unda ijobjiy reflekslarni shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Taklif qilinayotgan kuest texnologiyasining bola psixik rivojlanishiga ta'siri ko'rib chiqiladigan bo'lsa, jumboqli o'ynlar uning refleksiv faoliyatining samarali shakllanishiga xizmat qila oladi. Bolada rivojlantirilishi zarur bo'lgan har qaysi ijobjiy xulq-atvor va bilishga nisbatan ishtiyoqning tarkib topishida faoliyatning tutgan roli katta hisoblanadi. Shuning uchun doimiy ravishda bolalar faoliyati tahlil qilinishi va ularning bola tafakkuriga nisbatan ta'sirini to'g'ri baholash lozim. Bolalarda ijobjiy xulq-atvor va keng tasavvurni shakllantirishda kattalarning ular bilan birlgilidagi faoliyati asosiy o'rinni egallaydi.

Birgalikdagi faoliyat – bu bolaning subyektiv pozitsiyasini egallah shartidir, jarayon davomida bolaning qiziqishlari, moyilligi, ehtiyojlari, istaklari qondiriladi, ijodiy salohiyati rivojlanadi, shaxsiy fazilatlari (faoliyati, tashabbusi, mustaqilligi, ijodkorlik) shakllanadi.[4] Kuest o'ynlarini loyihalashtirishda bolalar bilan birgalikdagi faoliyat unsuri ustun sanaladi. Tarbiyachi har bosqichdan o'tishda bolalarga yordam beradi va jarayon ketma-ketligini ta'minlab turadi. Kuest o'ynlarini tashkil qilishning quyidagi tavsiyaviy shakllarini ko'rib o'tamiz:

**1. Labirint o'yini.** Ushbu turdag'i o'ynlarni 2 xil ko'rinishda tashkil qilish mumkin. Birinchisi – kartonlar yordamida labirint devorlarini hosil qilish va bolaga yo'lni aniqlash vazifasini berish. Bunda bolalar manzilga yetib borish uchun ochiq yo'lni topish uchun izlanadilar va o'z tasavvurlaridan amaliy jarayonda foydalanadilar. Ikkinchisi – bolalar ishtirokida hosil qilingan "jonli devorlar". Bunda labirint devorlarini bolalar bir-birlarini qo'llarini ushlagan holda hosil qildilar va bir yoki ikki ishtirokchiga mazkur labirintdan chiqish topshirig'i beriladi. Ikkinchi usuldan asosan katta va tayyorlov guruhalardagi bolalar bilan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. 5-7 yoshli bolalar bir muncha qoidalar asosida harakatlanish ko'nikmasiga ega bo'lganliklari bois o'yn syujetini "buzib" yubormaydilar.

**2. "Belgilar orqali manzilga yet"** – bu o'yinni tashkil qilish uchun guruhdagi turli buyumlar yoki o'ynchoqlarga maxsus belgilar qo'yib chiqiladi va bolalarga belgi qo'yilgan buyumlarni topish topshirig'i beriladi. O'yindan ko'zlangan maqsad bolada sinchkovlik bilan tadqiq qilish ko'nikmasini shakllantirish asosida unda sabr-toqatlilikni shakllantirish hisoblanadi. Qo'yilayotgan belgilar o'zaro bog'liq buyumlarga qo'yiladi va barcha predmetlar topilgach bolalar ularning o'zaro bog'liqligini tushuntirib berishlari lozim. Agar qiyalsalar tarbiyachi mazkur bilimlarni shakllanishiga ko'maklashishi zarur.

**3. "Sandiqchalardagi sirni aniqla"** o'yini – ushbu o'yinni tashkil qilish uchun bir nechta kichik qulflı sandiqchalar kerak bo'ladi. Sandiqlar xonaning turli qismlariga va ularning kalitlari ham turli joylarga yashirib qo'yiladi. Dastlab xonaga xatjild ichida maxsus xat va uning yonida kalit bilan qo'yiladi. Xatning mazmuni yashirilgan sandiqqa ishora berishi lozim. Misol uchun qandaydir qiziqarli savol yoki topishmoqni yozish mumkin. Topishmoqning javobi sandiq yashirilgan joy yoki predmet bo'lishi mumkin. o'yn xuddi shu tarzda davom ettiriladi va so'nggi sandiqchadan bolalar uchun yoqimli shirinlik yoki kichik sovg'alar bo'lishi mumkin.

**4. "Butun shaklni top"** – o'yn usuli kattaroq hajmdagi lego o'ynchoqlaridan foydalangan holda hosil qilinishi mumkin. buning uchun tarbiyachi kattaroq hajmda biron hayvon, qush, bolalar uchun qiziqarli qahramon kabi vositalardan birini tanlab olishi lozim. Shundan so'ng vositaning

rasmini yopishtirish mumkin bo'lgan qog'ozga chiqarib oladi va legolardan devor yasab rasmni ushbu devorga yopishtirib oladi. Keyingi qadam asta-sekinlik bilan lego chiziqlari bo'ylab rasmni qirqib olinadi. Legolar aralash holda bolalarga tarqatiladi. Bolalar lego o'yinchoqlari ichiga berkingan butun shaklni yig'ishlari kerak bo'ladi. O'yining asosiy sharti butun rasmni bolalar mustaqil ravishda aniqlash hisoblanadi. Yakuniy vositani topish uchun bolalar tadqiqiy faoliyatni amalga oshiradilar va natijaga erishish uchun turli yo'llardan foydalanishga harakat qiladilar.

Ta'lim oluvchi o'zi uchun muhim bo'lgan bilimlarni o'zi mustaqil qidirib o'zlashtirsa, ta'lilda muvaffaqiyatga erishadi. Bilimlarni izlash o'ziashtirish jarayoni chegaralanmagan uzlusiz jarayondir. Bu ayniqsa, hozir bilimlar tez-tez o'zgarib borayotgan davrda muhim abamiyat kasb etadi.<sup>[5]</sup> Maktabgacha yosh davri bolalar rivojlanishi va shaxs sifatida shakllanishidagi eng muhim bosqich sifatida ularda axborotlarni saralash ko'nikmasini hosil qilish lozim. Pedagog va tarbiyalanuvchi o'rtasida refleksiv tip vujudga kelishida kuest texnologiyasining ahamiyati ana shunday baholanadi. Pedagog bolada o'z xatti-harakatlarini boshqarish ko'nikmasini shakllantirish maqsadiga erishsa, bola o'zining o'ynash ehtiyojini qondirish asosida maroqli vaqt o'tkazishi mumkin.

Bola shaxsida bilish faoliyatiga nisbatan ongli munosabatni qaror topishi ulardagi o'zini o'zi anglash tizimining xususiyati bilan uzviy bog'liq. Ayniqsa, refleksiv faoliyatni rivojlaniruvchi vosita sifatida kuest o'yinlari bola shaxsini o'z-o'zini tahlil qilish asosida xulosalar shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois maktabgacha yoshdagagi bolalarga refleksiv ta'lism-tarbiyaning asosiy tamoyillarini quyidagicha ajratish mumkin:

- Tadqiqiy bilihga yo'naltirilganlik tamoyili – ta'lism-tarbiya jarayonida bolaning tabiiy muhitga qiziqishini o'stirishga xizmat qiluvchi usul va texnologiyalarni qo'llash;
- Ekzistensiallik tamoyili – ta'lism-tarbiyaviy faoliyatda ayrim yechimini talab etayotgan muammoli holatlarni belgilay olish ko'nikmasini shakllantirish;
- Kreativlik tamoyili – refleksiv faoliyatni rivojlanishida bolaning ijodiy tayyorgarligini bildiradi. Turli tadqiqotlarni o'tkazishni mustaqil holda tashkil etishga nisbatan qiziqishni rag'batlantirish;
- Dialogik tamoyili – o'z tushunchalari va fikrlarini tengdoshlari yoki pedagog bilan bo'lishish jarayonida xulosalar shakllanish jarayoni.

Refleksiv faoliyatni shakllantirishda bolalar bilan muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limi va tarbiyaviy faoliyatlar jarayonida ular bilan doimiy refleksiya daqiqalarini o'tkazish lozim. "Biz bugun nimalarni o'rgandik", "Qaysi faoliyatlar qiziqarli bo'ldi", "Ertaga nimalar haqida o'rganishni xohlaysiz", "Men aytgan ma'lumotlarni qaytara olasizmi?" kabi savollarning berilishi bolalarda refleksiyani vujudga keltiradi. "Orta qaytish" ular o'zlashtirgan ma'lumotlarni eslab qolishni mustahkamlash bilan birga o'z-o'ziga baho berish va rivojlanirish qobiliyatini hosil qiladi.

### XULOSA

Shunday qilib maktabgacha yoshdagagi bolalarda tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyatni shakllanishi muhim jarayon bo'lib, bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etib borayotgan tabiiy muhit va ilm-fanga nisbatan ongli munosabatni shakllanishida poydevor sifatida xizmat qiladi. Bolalar ongida erta yosh davridan tarkib topgan dunyoqarash (atrof-muhitga munosabat, o'zining xatti-harakatlarining natijasini tushunish, o'z faoliyatini mustaqil ravishda belgilay olish kabi) refleksiv ravishda umr mobaynida saqlanadi va insoniyatning yashash tarzi bilan bog'liq global muammolarning rivojlanish yo'llini bir qadar kesish imkoniyatlariga ega bo'lish mumkin.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://translate.google.com/translate?hl=ru&sl=uz&u=https://uzbekistan.un.org/uz/206419-yunesko-butunjahon-konferentsiyasi-erta-yoshdagagi-bolalar-tarbiyasi-va-ta%25E2%2580%2599limga-sarmoyalarni&prev=search&pto=aue>
2. Игумнова Е.А., Радецкая И.В. (2016). Квест-технология в образовании. Учебное пособие для студентов высш. испред. учебных заведений. – Чига: Забайкал. гос. ун-т., С. 170-177
3. О.Е.Hayitov. Z.P.Rasulov., (2023). "Psixologiya ta'rixsi" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmuua. Toshkent, 58
4. Shin A.B., Mirziyoyeva Sh.SH., Grosheva I.B., Mikailova U.T., Suleymanova Yu.T., Daukaeva A.G., Vlasova E.H., Galimova E.F. (2020). .Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lism jarayonini rejalashtirish. Metodik qo'llanma. Toshkent, 17
5. Xalilova N.I. (2018). Refleksiv ta'lism metodlari orqali talabalar mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish metodikasi., Uslubiy qo'llanma., Toshkent, 13